

**FARG'ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD 04/30.09.2020.TIB.122.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

BUTAYEV SHERZOD FAYZULLOYEVICH

**YURAKNING SURUNKALI ISHEMIK KASALLIGIDA MIOKARD
TUZILMALARIDAGI MORFOLOGIK O'ZGARISHLARNING YOSHGA
BOG'LIQ JIHATLARI**

14.00.15 –Patologik anatomiya

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

FARG'ONA-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Butayev Sherzod Fayzulloevich

Yurakning surunkali ishemik kasalligida
miokard tuzilmalaridagi morfologik
o'zgarishlarning yoshga bog'liq jihatlari 3

Бутаев Шерзод Файзуллоевич

Возрастные аспекты морфологических
изменений структур миокарда при
хронической ишемической болезни сердца..... 27

Butaev Sherzod Fayzulloevich

Age-related aspects of morphological
changes in myocardial structures in chronic
ischemic heart disease..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 58

**FARG'ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJA BERUVCHI PhD 04/30.09.2020.TIB.122.01
RAQAMLI ILMY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

BUTAYEV SHERZOD FAYZULLOYEVICH

**YURAKNING SURUNKALI ISHEMIK KASALLIGIDA MIOKARD
TUZILMALARIDAGI MORFOLOGIK O'ZGARISHLARNING YOSHGA
BOG'LIQ JIHLARI**

14.00.15 –Patologik anatomiya

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

FARG'ONA-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyaci mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Tib4598 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat tibbiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fjsti.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jumanov Ziyadulla Eshmamatovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Rasulov Xamidullo Abdullaevich
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Nazirov Sirojiddin Nazirovich
tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi PhD 04/30.09.2020.Tib.122.01raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «___»_____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 150100, Farg'ona shahri. Yangi Turon ko'chasi 2a-uy. Tel: (+99895) 400-01-14, /faks(99873) 245-59-07 e-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri. Yangi Turon ko'chasi 2a-uy. Tel: (+99895) 400-01-14, /faks(99873) 245-59-07 e-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___»_____da tarqatildi.

(2025 yil «___»_____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Sidikov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

S.A. Shakirov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.I.Ro'ziev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyaci mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Tib4598 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat tibbiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fjsti.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Jumanov Ziyadulla Eshmamatovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar: Rasulov Xamidullo Abdullaevich
tibbiyot fanlari doktori, dotsent
Nazirov Sirojiddin Nazirovich
tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

Yetakchi tashkilot: Andijon davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi PhD 04/30.09.2020.Tib.122.01raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «18» 01 soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 150100, Farg'ona shahri. Yangi Turon ko'chasi 2a-uy. Tel: (+99895) 400-01-14, /faks(99873) 245-59-07 e-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri. Yangi Turon ko'chasi 2a-uy. Tel: (+99895) 400-01-14, /faks(99873) 245-59-07 e-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «10» 01 da tarqatildi.
(2025 yil «10» 01 da) 11 raqamli reestr bayonnomasi).



A.A.Sidikov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

S.A. Shakirov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.I.Ro'ziev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Surunkali ishemik yurak kasalligida (SYuIK) miokard tuzilmalarida morfologik o'zgarishlarning yoshga bog'liq jihatlari yuzasidan, ayniqsa keksa aholi orasida tadqiqotlarning amalga oshirilishi ushbu kasallikning global tarqalishi bilan bog'liqdir. Jahon miqiyosida SYuIK bugungi kunga qadar tibbiyotning oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan berilgan ma'lumotlarida, yurak kasalliklari, shu jumladan ishemik kasalliklar butun dunyo bo'ylab, ayniqsa 60 yoshdan oshgan yosh guruhida o'lim sabablari orasida birinchi o'rinda turadi (kim, 2021). Yurak to'qimasidagi yoshga bog'liq o'zgarishlar, masalan, fibroz va miokardni qayta tiklanishi, SYuIKni sezilarli darajada yomonlashtiradi, bu esa ushbu jarayonlarni batafsil o'rganishni talab qiladi.

Yevropa va AQSh mamlakatlarida tadqiqotlar SYuIK patogenezi va yoshga bog'liq o'zgarishlarni faol ravishda o'rganishga qaratilgan. So'nggi yillarda qarish miokardning ishemik shikastlanishini kuchayishi va yurak to'qimalarida tarkibiy o'zgarishlarga olib kelishini ko'rsatadigan katta tadqiqotlar o'tkazildi (Smit J. va boshq., 2020). Ushbu hududlarda keksa bemorlarida SYuIK oqibatlarini yaxshilashga qaratilgan terapiyaning yangi yondashuvlari ham faol ishlab chiqilmoqda (Allemann Y. va boshq., 2018).

Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham SYuIK dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Songgi vaqtlarda shaharlashihsning keng tarqalishva hayot kechrish shart-sharoitlarini tabora yaxshi tomonga o'zgarib ketayotganligi odam organizmida har xil kasalliklarni, ayniqsa, yurak patologiyalarini rivojlanishiga olib kelmoqda. Shuningdek, yurakning surunkali ishemik xastaligi kundan-kunga oshib ketayotganligi qayd etilmoqda. Yurakning surunkali ishemik xastaligi rivojlangan bemorlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi haqida ma'lumotlar kamchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun ham ushbu kasallik yusaidan ilmiy tadqiqotlar olib borilishi bugungi kunning dolzarb muommolaridan biri hisoblanadi (Karimov va boshq., 2019).

Markaziy Osiyoning boshqa mamalakatlarida uchragani kabi, O'zbekistonda ham susrunkali yurak ishemik kasalligi keksa yoshli aholi o'rtasida o'limning ilg'or sababchilaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, surunkali ishemiya bilan bog'liq miokarddagi yoshga bog'liq morfologik o'zgarishlar etarli darajada o'rganilmagan. Ushbu o'zgarishlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazish mintaqadagi keksa bemorlarda SYuIK ni davolash va oldini olishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi (I. R. Abduraimov, 2020).

Shunday qilib, SYuIK da miokard morfologik o'zgarishlarining yoshga bog'liq jihatlarni o'rganish jahon miqiyosida, ayniqsa keksa aholi uchun dolzarb vazifa bo'lib, turli mintaqalar xususiyatlarini, shu jumladan O'zbekistonni ham hisobga olgan holda batafsil ko'rib chiqishni talab qiladi.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish tibbiy tizimni jahon andozalari talablariga moslashtirish, jumladan, turli etiologiyali somatik kasalliklar natijasida yuzaga kelgan o'limni erta aniqlashga qaratilgan muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarishda

«...birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash...»¹ kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, srunkali yurak ishemik kasalligi bilan kasallangan bemorlarda o'lim yuzaga kelishi sabablarini aniqlash yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-yilda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida" gi Farmonlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi - 2026-yil" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son, "yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va davolash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-2022-yil 26-yanvardagi 103-son, "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi", 2017-yil 7-fevraldagi 4947-son, "yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va davolash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar o'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimlari", 2018-yil 7-dekabrda -5590-son, "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy etish va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 12-noyabrda PF-6110-son Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-iyunda -3071-son "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining sud-tibbiy xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2018-yil 4-dekabrda 4049-son 2019-yil 6-mayda -4310-son, "Tibbiy-profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish yo'li bilan aholi sog'lig'ini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida "2020-yil 12-noyabrda -4891-son PQ," sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida "2021-yil 25-mayda-5124-son PQ," sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021-yil 28-iyulda-5199-son PP ushbu faoliyat bilan bog'liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni muayyan darajada amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishiga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. "Tibbiyot va farmakologiya" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Bir guruh izlanuvchilar tomonidan yurakning surunkali ishemik kasalligining shifokorlarda kechishi o'rganilgan bo'lib, unga ko'ra, tibbiyot xodimlari, xususan, tibbiy-ijtimoiy ekspertiza shifokorlari ushbu patologiyaning paydo bo'lishi uchun alohida xavf guruhini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan ushbu toifadagi mutaxassislardayurakning surunkali ishemik kasalligi paydo bo'lishining oldini olish uchun psixo-emotsional buzilishlarni aniqlash va ularni bartaraf etish zarur (Кровякова Е.А., Киричук В. Ф., Кодочигова А. И., 2011). Tadqiqotchilarning (Майорова М.В., 2011) bergan ma'lumotlariga ko'ra, koronar qon tomirlar aterosklerozi tufayli miokard ishemiyasi va mayda o'chog'li kardioskleroz rivojlanishi qandli diabet kasalligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Makro va mikroangiopatiya tufayli yurak hajmining kattalashuvi, dilatatsion

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

kardiomiopatiya, kardiomiositlarda gidropik distrofiya va ularning fokal nekrozi, miokard tolalari oraliqlarida yog' to'qimasini o'sganligi, gipertrofiyasi va endokarda skleroz qayd etiladi.

Цыпленкова В.Г (2009) totmonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, yurakning ishemik kasalligida kardiomiositlarda nuklien kislotasining, ferment va oqsillar sifatining hamda miqdorining keskin buzilishlari ichki sekresiya bezlari bilan yurak toj arteriyalarning ateroskleroz kasalligida qayd etiladi. Камышникова hamda uning hammualliflari (2016) hazm sistemasi parazitarni kasalliklari yurakda surunkali ishemik xastaligining rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumotlar bergan, biroq yurak qon tomirlariga *Helicobacter pylori* ta'siri oxirigacha o'rganilmagan. Tadqiqotchilar (АКИМОВА Е.В., АКИМОВ М.Ю., КАЮМОВА М.М., ГАФАРОВ В.В., 2021) olgan natijalarga ko'ra, yurak ishemik kasalligi 45-54 yoshdagi erkaklarda 8,2%, 55-64 yoshda - 19,2%, tashkil etadi. Katta yoshdagi erkaklarda psixo-emotsional stress omillari darajasiga ko'ra, depressiya va hayotiy charchoqning o'rtacha darajasi aniqlandi. Ruhiiy stressga ko'ra erkaklar 45-54/55-64 yoshlarida depressiya rivojlanganda ruhiy charchoq tufayli yurakning ishemik kasalligi paydo bo'lishining xavfi ortishi kuzatiladi (Тюмень modelida). Shuning uchun ushbu tadqiqotda ushbu olingan ma'lumotlardan ko'rinadiki, Sibirda yashovchi Yoshi katta erkaklar orasida ruhi holatining buzilish omillari, ularni bevosita toj artetriyalar kasalliklarinin ortish xavfi bilan aloqadorligi, jumladan yurak ishmik kasalliklarinin kamaytrish va oldini olishda nafaqat oziqlanish bilan bog'liq omillarni, balki ruhiy holatni buzilishini oldini olish o'ta muhim ekanligi ko'zga tashlanadi.

Bir guruh O'zbek tadqiqotchilar tomonidan (Sayfiddinova M.A., Raximova M.E., Rozikov A.A., 2016) yurak ishemik kasalliklarni gastroduodenal soha patologiyalari bilan birga kechishini o'rgangan. Ularning e'tirof etishicha yurakning surunkali ishemik kasalligi hamda me'da-ichak kasalliklari birga rivojlanganda bemorlarning uzoq muddatli davolanishi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida hayotiylikning sifat ko'rsatkichlarinin kamayishiga olib keladi. Yurak qon tomir va hazm tizimining kasallilari bir-biriga o'zaro yomon tasir etmaydi, ammo yurak qon tomir kasalliklaini tashxislashda ma'lum chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida yura -qon tomir va hazm sistemasi kasalliklari bir vaqtda rivojlanish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilishini anglatadi. Shuningdek, surunkali yurak ishmik kasalligi va hazm tizimining surunkali kasalliklarini bir vaqtda rivojlanishi nashislash jarayonida qiyinchiliklar keltitb charganligi uchun bunday bemorlarni diagnostikasini shakllantirishda ham gastroenterolog ham kardiolog hamkorligida amalga oshirilishi va dinamikasini olib borishlari lozim bo'ladi.

Bugungi kunga qadar yurak ishemik kasalligi morfologik diagnostikasiga tizimli yondashuv va patologoanatomik mezon mavjud emas. Yurakning surunkali ishemik kasalligida miokard tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlarning yoshga bog'liq jihatlari yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqotlar ishlari rejasiga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand Davlat tibbiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Yurak qon tomirlari kasalliklarining oldini olish, tashxislash va davolashning zamonaviy texnologiyalarini yaratish va amaliyatiga joriy etish» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan (202-2023 y.y.)

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat tibbiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Yurak qon tomir kasalliklarining oldini olish, tashxis qo'yish va davolashning zamonaviy texnologiyalarini yaratish va amaliyotga joriy etish» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan (2020-2023 y.y.).

Ishning maqsadi: Yurakning surunkali ishemik kasalligida miokard tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlarning yoshga bog'liq jihatlari o'rganish.

Ilmiy tadqiqot vazifalari:

Qon tomir o'zgarishlarining miokardning tuzilmalaridagi o'zgarishlariga nisbatan ustunlik xususiyatlarini aniqlash uchun SYuIK rivojlangan yosh bemorlarda intramiokardial tomirlar va miokarddagi morfologik o'zgarishlarni o'rganish.

SYuIK rivojlangan bemorlarda miokard tuzilmalaridagi morfometrik ko'rsatkichlaridagi yoshga bog'liq o'zgarishlarini aniqlash, yosh va yurak to'qimalaridagi bog'liqlikni o'rganish.

O'rta yoshli odamlarda miokarddagi distrofik va nekrotik o'zgarishlarning joylashuvini tahlil etish, mushak va qon tomir tuzilmalaridagi destruktiv va sklerotik jarayonlarni kombinatsiyasining jihatlari aniqlash.

Kasallikning davomiyligining miokarddagi patologik o'zgarishlarning rivojlanishiga ta'sirini baholash, SYuIK davomiyligi va gipertrofik, atrofik va sklerotik jarayonlarning, shuningdek miokard arteriyalarining torayishi o'rtasidagi bog'liqlikni tekshirish.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Yurakning surunkali ishemik kasalligidan vafot etgan 169 nafar bemorlar yuragi. Yurakning chap qorinchasidan olingan to'qima bo'lakchalari.

Tadqiqot usullari. Anamnestik, makroskopik, mikroskopik tekshiruvlar, miokarddan olingan to'qima bo'lakchalari Gemotoksilin-eozinda, Van-gizon usulida, elastik tolalarni Veygert usulida rezorsin-fuksinda bo'yash, morfometrik, preparatlarni mikrofotografiyasi, statistik usullar.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Yurakning surunkali ishemik xastaligida miokard tuzilmalari va sklerotik o'zgarishlarni morfometrik jihatlari bemorlarning yoshiga bog'lab o'rganiladi. Turli yoshlardagi bemorlar miokard tuzilmalarini morfologiyasi va morfometrik jihatlari qiyosiy tahlili o'tkazilib, ular orasidagi farq-tafovutlar aniqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati SYuIK mavjud bo'lgan bemorlar miokard tuzilmalari va unda rivojlangan sklerotik o'zgarishlarning jihatlari bemorlarning Yoshi bo'yicha qoyosiy morfologik solishtirma tahlil orqali hozirgi vaqtgacha aniqlangan ma'lumotlarni to'ldirish bilan izohlanadi. Olingan ma'lumotlardan miokarddagi nekrotik va holatlarida kompensator imkoniyatlarni rivojlantirishda faydali bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati: miokard tuzilmalarini o'rganishdan olingan natijalari surunkali yurak ishemik xastaligida miokard tuzilmalaridagi zararlanish jihatlari patologik anatomiya tashxisni asoslashda qo'shimcha solishtirma-diagnostik mezonlardan foydalanishdan iborat. Tadqiqotdan olingan natijalar surunkali yurak ishemik kasalligida profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yurakning surunkali ishemik kasalligiga chalingan yoshlarda kardiomiotsitlar gipetrofiyasi yaqqol rivojlanmasligi va intramiokardial qon tomirlardagi morfologik o'zgarishlarning mushak tuzilmalaridagi o'zgarishlarga nisbatan ustunlik qilishi tanatogenezda muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan;

yurak surunkali ishemik kasalligida miokard tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlarning turli yoshga xos morfometrik ko'rsatkichlari aniqlangan bo'lib, miokard tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar oshgan sari ulardagi morfometrik ko'rsatkichlar ham ortib borishi va destruktiv o'zgarishlar, sklerotik jarayon intensivligi oshishining bemorlarning yoshi bilan bog'liqligi isbotlangan;

miokard tuzilmalaridagi distrofik va nekrotik o'zgarishlar lokalizatsiyasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'rta yoshlilar miokard tuzilmalaridagi destruktiv o'zgarishlarning sklerotik jarayonlar bilan almashinuv intensivligining oshishi ham mushak, ham qon tomir tuzilmalarida kuzatilishi isbotlangan;

yurakning surunkali ishemik kasalligiga chalingan bemorlarda ularning yoshidan qat'iy nazar kasallik muddati oshgan sari gipertrofik, atrofik va sklerotik jarayonlar egallagan sohalarning ortishi va intramiokardial arteriyalar devorining torayishi kuchliroq namoyon bo'lishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiya ishida qo'llanilgan nazariy yondashuv, usullar, o'tkazilgan tadqiqotning uslubiy tomondan to'g'riligi, materiallarning yetarli darajada ekanligi, zamonaviy usullardan foydalanilganligi va ularning bir-birini to'ldirganligi, morfologik va morfometrik, mikroskopik hamda statistik usullar yordamida xalqaro va mahalliy mualliflarning olgan ma'lumotlari bilan solishtirilganligi, olingan natijalarni vakolatli tizimlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarini ilmiy ahamiyati surunkali yurak ishemik kasalligida miokard va sklerotik to'qima tuzilmalaridagi o'zgarishlarning morfologik jihatlari turli yosh o'rtasida qiyosiy morfologik taqqoslash orqali bugungacha ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni to'ldirish bilan izohlanadi. Xuddi shu ma'lumotlar yurakning miokard qavatidagi ishemik holatlarida kompensator imkoniyatlarni rivojlantirishda foydali bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yuqoridagi tuzilmalarni o'rganishdan olingan natijalar yurak surunkali ishemik kasalligida patologoanatomik tashxisni asoslashda qo'shimcha qiyosiy-tashxislash mezonlari ishlab chiqiladi. Olingan natijalar orqali miokard tuzilmalaridagi o'zgarishlarning sklerotik jarayonlar rivojlanishidagi o'rnini baholash uchun ishlatilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2024-yil yigirma beshinchi sentabrdagi 6-sonli yig'ilishi bayonnomasiga ko'ra:

birinchi ilmiy yangilik: yurakning surunkali ishemik kasalligiga chalingan yoshlarda kardiomiotsitlar gipetrofiyasi yaqqol rivojlanmasligi va intramiokardial qon tomirlardagi morfologik o'zgarishlarning mushak tuzilmalaridagi o'zgarishlarga nisbatan ustunlik qilishi tanatogenezda muhim ahamiyat kasb etishi asoslangani O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining Surxondaryo viloyati patologik anatomiya byurosi 2024- yil 11- apreldagi 06-T sonli buyruq bilan patologik anatomiya amaliyotiga va Jizzax viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha 2024- yil 9- apreldagi 21- sonli buyruq bilan patologik anatomiya amaliyotiga joriy etilgan. Ijtimoiy samaradorligi: tavsiya etilgan algoritim va

uslublarning patologik anatomiya amaliyotiga joriy etilishi natijasida, yurak surunkali ishemik kasalligi bilan xastalangan bemorlar miokard qavatidagi morfologik o'zgarishlarning patologoanatomik tekshiruvlarga doir xulosalarining sifati oshirilgan va ularning ishonchliligi hamda asoslanishi va ob'ektivligi ta'minlagan. Iqtisodiy samaradorligi: tavsiya etilgan uslublarni amalga oshirish uchun 3,5 va 4,0 kun talab qilinadi, an'anaviy tarzda tekshiruv o'tkazishda esa 8-10 kun talab qiladi, chunki an'anaviy usulda juda ko'plab qo'shimcha tekshirishlar va shifokor mutaxassislar maslahatlari olinishi talab etiladi. Ko'rinib turibdiki, tavsiya etilgan usuldan foydalangan holda patologik anatomiya tadqiqotlarini o'tkazish vaqtini 2-2,5 barobar qisqartiradi va taklif qilingan usulning qiymati har bir holat uchun xarajat mablag'larini 2-2,5 barobarga qisqartirish imkonini bergan.

Xulosa: Tavsiya etilgan usuldan foydalangan holda patologoanatomik tekshirishlarini o'tkazish vaqtini qariyb 2-2,5 barobarga qisqartiradi.

ikkinchi ilmiy yangilik: yurak surunkali ishemik kasalligida miokard tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlarning turli yoshga xos morfometrik ko'rsatkichlari aniqlangan bo'lib, miokard tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar oshgan sari ulardagi morfometrik ko'rsatkichlar ham ortib borishi va destruktiv o'zgarishlar, sklerotik jarayon intensivligi oshishining bemorlarning yoshi bilan bog'liqligi isbotlangani O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining Surxondaryo viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha 2024- yil 11- apreldagi 06-T sonli buyruq bilan patologik anatomiya amaliyotiga va Jizzax viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha 2024- yil 9- apreldagi 21- sonli buyruq bilan patologik anatomiya amaliyotiga joriy etilgan. Ijtimoiy samaradorligi: tadqiqot natijalarining patologik anatomiya amaliyotiga joriy etilishi natijasida yurak ishemik kasalligi bilan xastalangan bemorlar miokard tuzilmalaridagi o'zgarishlarini ishonchli tarzda aniqlash imkon bergan. Bundan tashqari, yurak ishemik kasalligi bilan xastalangan bemorlar miokard tuzilmalaridagi o'zgarishlar yoshga bog'liq holda morfometrik ko'rsatkichlar farqlanishi asoslab berilgan. Bu esa o'z navbatida, patologoanatomik xulosalarining sifati va ularning ishonchliligi hamda asoslanishini ta'minlagan. Iqtisodiy samaradorligi: tavsiya etilgan patologoanatomik tekshiruv uslublarini amalga oshirish uchun $2 \pm 0,2$ kun talab qilinadi, an'anaviy tarzda tekshiruv o'tkazishda tekshiruv muddati 5-6 kunni tashkil qilgan bo'lib yurak surunkali ishemik kasalligini aniqlash uchun qo'shimcha tekshiruv usullar va mutaxassislar jalb etilgan. Ko'rinib turibdiki, tavsiya etilgan usuldan foydalangan holda patologik anatomiya tadqiqotlarini o'tkazish vaqtini 2-2,5 barobar qisqartiradi va taklif qilingan usulning qiymati har bir holat uchun 2-2,5 barobar xarajat mablag'larini qisqartiradi.

Xulosa-surunkali yurak ishemik kasalligi mavjud bo'lgan bemorlarda miokarddagi strukturaviy o'zgarishlarni aniqlash uchun tavsiya qilingan mazkur usul yordamida patologik anatomiya tadqiqotlarini olib boorish vaqtini 2,0-2,5 barobarga qisqartiradi.

uchinchi ilmiy yangilik: miokard tuzilmalaridagi distrofik va nekrotik o'zgarishlar lokalizatsiyasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'rta yoshlilar miokard tuzilmalaridagi destruktiv o'zgarishlarning sklerotik jarayonlar bilan almashinuv intensivligining oshishi ham mushak, ham qon tomir tuzilmalarida

kuzatilishi isbotlangani O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining Surxondaryo viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha 2024- yil 11- apreldagi 06-T sonli buyruq bilan patologik anatomiya amaliyotiga va Jizzax viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha 2024- yil 9- apreldagi 21- sonli buyruq bilan patologik anatomiya amaliyotiga joriy etilgan. Ijtimoiy samaradorligi: tadqiqot natijalarining patologik anatomiya amaliyotiga joriy etilishi natijasida yurak ishemik kasalligi bilan xastalangan bemorlar miokard tuzilmalaridagi distrofik nekrotik va sklerotik o'zgarishlar shakllanishi dinamikasining morfologik ko'rinishlari va morfometrik ko'rsatkichlarining o'ziga xos jihatlari va ularning kasallik muddati va bemorlarning yoshiga nisbatan, farq tafovutlarini ishonchli tarzda aniqlash imkonini bergan. Yurak ishemik kasalligi bilan xastalangan bemorlar miokard tuzilmalaridagi distrofik va nekrotik o'zgarishlar kasallikning erta muddatlarida va yosh bemorlarda patomorfologik o'zgarishlarning yuzaki o'zgarishlar bilan namoyon bo'lishi asoslangan. Bu esa o'z navbatida, patologik anatomiya xulosalarining sifati va ularning ishonchliligi hamda asoslanishini ta'minlagan. Iqtisodiy samaradorligi: Tavsiya etilgan uslublarga ko'ra, patologoantomik tekshiruvini amalga oshirish uchun $2,1 \pm 0,2$ kun kerak bo'ladi va ushbu turdagi tekshiruvni an'anaviy tarzda o'tkazish uchun $5 \pm 0,7$ kun talab qilinadi, bu odatda morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarni turli uskunalarda qo'shimcha tekshirish va mutaxassislar maslahatlari zarurati bilan bog'liq bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, tavsiya etilgan usul yordamida patologik anatomiya tadqiqotlarini o'tkazish bunday tekshirishlarni o'tkazish vaqtini 1,5-2,0 baravar qisqartiradi va taklif qilingan usul xarajat mablag'larini 2 barobarga qisqartiradi.

Xulosa: yurakning surunkali ishemik kasalligi bilan kasallanganlar miokard qavati tuzilmalari distrofik va nekrotik o'zgarishlarinin aniqlash maqsadida tavsiya qilingan ushbu usul bilan patomorfologik tekshiruvlar olib borilishi, tadqiqotlarning o'tkazish vaqtini 1,5-2,0 marotabagacha qisqartiradi va taklif qilingan usul xarajatlari har bir holat uchun mablag'larini 2 barobarga qisqartiradi.

to'rtinchi ilmiy yangilik: yurakning surunkali ishemik kasalligiga chalingan bemorlarda ularning yoshidan qat'iy nazar kasallik muddati oshgan sari gipertrofik, atrofik va sklerotik jarayonlar egallagan sohalarning ortishi va intramiokardial arteriyalar devorining torayishi kuchliroq namoyon bo'lishi asoslangani O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining Surxondaryo viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha 2024- yil 11- apreldagi 06-T sonli buyruq bilan patologik anatomiya amaliyotiga va Jizzax viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha 2024- yil 9- apreldagi 21- sonli buyruq bilan patologik anatomiya amaliyotiga joriy etilgan. Ijtimoiy samaradorligi: tadqiqot natijalari bo'yicha yurak surunkali ishemik kasalligi bilan xastalangan bemorlar miokard qavati kardiomiotsitlar va qon tomir tuzilmalarida patomorfologik o'zgarishlarni ishonchli aniqlash imkonini beradi va kasallikni turli muddatlarida va turli yoshdagi bemorlarda miokard tuzilmalaridagi o'zgarishlarning o'ziga xosligini aniqlash uchun xizmat qiladi. Yurak ishemik kasalligi bilan xastalangan bemorlar miokard qavatidagi

o'zgarishlar yuzasidan ishlab chiqilgan tavsiyalar, patologik anatomiya amaliyotiga joriy etilishi natijasida, patologik anatomiya xulosalarining ob'ektivligi va ishonchliligi hamda asoslanishini ta'minlagan. Bu esa o'z navbatida, miokarddagi o'zgarishlarni erta aniqlash va bemorlar e'tirozlarini bartaraf etish imkonini bergan. Iqtisodiy samaradorligi: Tavsiya etilgan algoritm va uslublarga ko'ra, patologoanatomik tekshiruvni amalga oshirish uchun $2,0 \pm 0,2$ kun kerak bo'ladi va ushbu turdagi tekshiruvni an'anaviy tarzda o'tkazish uchun $4-5 \pm 0,4$ kun davomida amalga oshiriladi. Bu miokard qavati mushak va qon tomir tuzilmalarining patomorfologik o'zgarishini aniqlashda qo'shimcha tekshiruvlarni jalb etilishi bilan bog'liq hisoblanadi. Tavsiya etilgan usul yordamida patologoanatomik tadqiqotlarini o'tkazish vaqtini 1,0-1,5 baravar qisqartiradi va taklif qilingan usul xarajatlari har bir holat bo'yicha xarajat mablag'larini qisqartiradi.

Xulosa: Tavsiya etilgan usul yordamida patologik anatomiya tadqiqotlarini o'tkazish vaqtini 1,0-1,5 baravar qisqartiradi va taklif qilingan usul xarajatlari har bir holat mablag'larini 1,5 barobarga qisqartiradi.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Olib borilgan ushbu tadqiqot natijalari asosida 5 ta ilmiy va amaliy koferensiyalarda, 1 ta Xalqaro, 3 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertasiya ishi yuzasidan hammasi bo'lib 10 ta ilmiy ishlar chop ettirilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi OAK tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi asosiy ilmiy natijalarini nashr qilish uchun tavuya qilingan ilmiy nashrlarda 4 dona maqola, shundan, 2 donasi Respublika va 2 donasi xorij jurnalida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi quyidagilardan iborat: kirish qismi, to'rt bob, xulosalar, adabiyotlar ro'yxati va qisqartmalar. Dissertatsiyaning hajmi 101 bet kompyuter matnidan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularni ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishlarning aprobatsiyasi natijalari, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Yurakning surunkali ishemik kasalligida miokard tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlarning yoshga bog'liq jihatlari (**adabiyotlar sharhi**)» deb nomlangan birinchi bobi ikki kichik bo'limdan tashkil topgan bo'lib, yurak ishemik kasalligida miokard strukturasi o'rganish bo'yicha jahon adabiyotlaridagi ma'lumotlarni batafsil tahlili natijalari keltirilgan. Adabiyotlar tahlili ma'lumotlarning chalkashligi va turli xilligi, yurakning surunkali ishemik kasalligida miokard tuzilmalaridagi o'zgarishlarni baholash bo'yicha aniq tavsiyalar yo'qligini ko'rsatdi. Miokardning mushak va fibroz to'qima hamda qon tomirlaridagi o'zgarishlarga alohida tuxtab o'tilgan. Yurakning surunkali ishemik

kasalligida miokard tuzilmalaridagi o'zgarishlarni yoshga bog'liq jihatlari to'liq o'rganilishi kerakligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning «**Yurakning surunkali ishemik kasalligida miokard tuzilmalarining morfologiyasini baholashning uslubiy jihatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob'ekti va predmeti haqida ma'lumot berilgan. Tadqiqotda belgilangan vazifalarni hal etish uchun Respublika Sud tibbiyoti ilmiy amaliy markazining Samarqand filiali, Respublika shoshilinch tez yordam ilmiy markazi Samarqand filiali va Samarqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasida yurakning surunkali ishemik kasalligidan vafot etgan jami 169 nafar bemor yuragining miokard qavatining tuzilmalari o'rganilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda yurakning surunkali ishemik kasalligida miokard tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlarning yoshga bog'liq jihatlari aniqlashga yo'naltirilgan tekshiruvda tadqiqot JSST yosh toifasi tasnifiga quyidagi bo'linadi: I- guruh-yoshlar: 18-44 yosh; II- guruh- o'rta yoshlilar: 45-59 yosh; III- guruh-keksa yoshlilar: 60-74 yosh; IV-guruh-qari yoshlilar: 75-90 yosh; V-guruh-uzoq umr ko'ruvchilar: 90 yoshdan katta.

Surunkali yurak ishemik kasalligi bilan xastalangan bemorlar yoshi JSST kategoriyasi bo'yicha: beshta guruhning uchta guruhi ajratib olindi: yoshlar (18-44 yosh); o'rta yoshlilar (45-59 yosh) va keksa yoshlilar (60-74). Tadqiqot maqsadini chuqurroq va aniqroq amalga oshirish uchun ushbu yosh guruhlari quyidagi 3 ta kichik guruhga bo'lindi:

I-guruh Yoshlarda surunkali yurak ishemik kasalligida miokard strukturasi morfologik xususiyatlari o'rganish maqsadida 28 nafar 25-45 yoshli vafot etgan shaxslar yuragi mikroskopik tekshiruvdan o'tkazilgan bo'lib, shulardan 21 nafari (75 %) erkak, 7 nafari (25%) ayolladir. Ushbu yoshdagilar miokarddagi patomorfologik o'zgarishlarni chuqurlashtirib o'rganish maqsadidida quyidagi kichik guruhlarga bo'lindi:

1-guruh: 25-30 yoshlilar; **2-guruh:** 31-35 yoshlilar; **3-guruh:**36-40 yoshlilar; **4-guruh:**41-44 yoshlilar.

II-guruh O'rta yoshlilar surunkali yurak ishemik kasalligida miokard strukturasi morfologik xususiyatlari o'rganish maqsadida 38 nafar 45-59 yoshli vafot etgan shaxslar yuragi mikroskopik tekshiruvdan o'tkazilgan bo'lib, shulardan 31 nafari (82 %) erkak, 7 nafari (18 %) ayolladir. Ushbu yoshdagilar miokarddagi patomorfologik o'zgarishlarni chuqurlashtirib o'rganish maqsadidida quyidagi kichik guruhlarga bo'lindi:

1-guruh: 45-50 yoshlilar; **2-guruh:** 51-55 yoshlilar; **3- guruh:** 56-59 yoshlilar.

III-guruh. Keksa yoshlilar surunkali yurak ishemik kasalligida miokard strukturasi morfologik xususiyatlari o'rganish maqsadida 24 nafar 60-74 yoshli vafot etgan shaxslar yuragi mikroskopik tekshiruvdan o'tkazilgan bo'lib, shulardan 21 nafari (88 %) erkak, 3 nafari (12%) ayolladir. Ushbu yoshdagilar miokarddagi patomorfologik o'zgarishlarni chuqurlashtirib o'rganish maqsadidida quyidagi kichik guruhlarga bo'lindi:


1-guruh: 60-65 yoshlilar; **2-guruh:** 66-70 yoshlilar;**3- guruh:** 70 yoshdan kattalar.

Tadqiqot guruhlarining jinsi, yoshi va yashagan vaqtiga doir ma'lumotlar quyidagi jadval (1-jadvalga qarang) va diagrammada ko'rsatilgan:

Tadqiqot materiallarining tasnifi


Surunkali yurak ishemik kasalligi bilan xastalanib vaqot etganlarning yosh kategoriyasi va jinsi bo'yicha taqsimlanishi											
Jinsi	Yoshlar (I-guruh)				O'rta yoshlilar (II-guruh)			Keksa yoshlilar (III-guruh)			Jami
	25-30	31-35	36-40-	41-44	45-50	51-55	56-59	60-65	66-70	70 yoshdan	
Erkak	9	11	18	15	21	17	20	11	13	7	142
Ayol	2	1	4	3	2	2	4	2	4	3	17
Jami	11	12	22	18	23	19	24	13	17	10	169
%/%	82/18	92/8	82/18	83/17	91/9	89/11	83/17	85/15	76/24	70/30	84/16

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, **Surunkali yurak ishemik kasalligi bilan xastalanib vafot etganlarning** aksariyatini (84%) erkaklar, 16 % ni ayollar tashkil etadi (1-rasmga qarang).



1-Rasm. Surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etganlarning jinsi bo'yicha Taqsimlanishi

Surunkali yurakning ishemik kasalligidan vafot etgan yoshlarning soni jami 63 nafarni tashkil etib shulardan 53 nafari erkaklar (84,1%), 10 nafari ayollardir (15,9 %). Ushbu guruhning kichik guruhlarida esa, surunkali yurak ishemik kasalligi bilan 25-30 yoshgacha xastalanib vafot etganlarning jami 11 nafar bo'lib, shulardan 82 % erkak, 18% i ayollardir. 31-35 yoshida xastalanib vafot etganlar jami 12 nafarni tashkil etib, shulardan 92 % erkaklar, 8,0 % ayollar tashkil etadi. 36-40 yoshda ushbu kasalliklikdan vafot etganlar jami 22 nafar bo'lib, shulardan 82 % erkaklar, 18 % ayollar tashkil etadi. Surunkali yurak ishemik kasalligidan 41-44 yoshda vafot etganlar soni jami 18 nafar bo'lib, shulardan 83 % erkak, 17 % ayollardir.



2-Rasm. Surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etgan yoshlar (I-guruh) ning jinsi bo'yicha taasimlanishi.

3-Rasm. Surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etgan yoshlar (II-guruh) ning jinsi bo'yicha taasimlanishi.

4-Rasm. Surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etgan yoshlar (III-guruh) ning jinsi bo'yicha taasimlanishi.

Surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etgan o'rta yoshlilar soni jami 66 nafar bo'lib, ulardan 58 nafari (89 %) erkak, 8 nafari (11%) ayollardir (3-rasmga qarang).

Surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etgan o'rta yoshlilar guruhining birinchi kichik guruhlari (45-50 yoshlilar) 23 holatni tashkil etib, shulardan 21 nafari erkaklar (91%) va 2 nafari ayollardir (9%). 51-55 yoshlilar 19 holatni tashkil etadi, shundan 89 % erkak, 11 % ayol, 56-59 yoshli surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etganlar 38 nafar bo'lib, shundan 83 % erkaklar, 17 % ayollarga to'g'ri keladi.

Surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etgan keksa yoshlilar soni jami 40 nafar bo'lib, ulardan 31 nafari (77,5 %) erkak, 9 nafari (22,5%) ayollardir (4-rasmga qarang).

Surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etgan keksa yoshlilar guruhining (III-guruh) birinchi kichik guruhi (60-65 yoshlilar) 13 holatni tashkil etib, shulardan 11 nafari erkaklar (88 %) va 2 nafari ayollardir (15 %). Ikkinchi kichik guruh (66-70 yoshlilar) 17 holatni tashkil etadi, shundan 76 % erkak, 24 % ayol, Uchinchi kichik guruh (70 yoshdan kattalar) 10 nafar bo'lib, shundan 70 % erkaklar, 30 % ayollardir.

Bularning barchasi Respublika sud tibbiy ekspertizasi ilmiy amaliy markazi samarqand filialida ekspertiza tekshiruvidan o'tkazilgan, Respublika shoshilinch tez yordam ilmiy markazi Samarqand filiali hamda Samarqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasi kardiologiya, reanimatsiya va terapiya bo'limlarida vafot etganlardir.

Tadqiqot usullari

Tadqiqotimizga tanlab olingan yosh guruhlari ob'ektlarida miokard tuzilmalarining morfologik va morfometrik jihatlari o'rganildi. Bunda maxsus gistologik tekshiruv uchun material avtopsiyada olingan miokarddan olindi. Olingan to'qima bo'lakchalari 10% neytral formalinda fiksatsiya qilindi, spirtli batareya orqali o'tkazildi, parafinli bloklar tayyorlandi. Tayyorlangan gistologik qirqmalar gematoksilin va eozin, Van-Gizon, Veygert usullari bilan bo'yaldi. Gistologik preparatlar bo'yicha yurak miokard qavatining mushak to'qimasi, fibroz to'qima, kardiomiotsitlar, turli kalibrli qon tomirlar devori va qon tomirlar


bo'shlig'i o'rganildi. Kardiomiotsitlar va qon tomir strukturasi ob'ektiv baholashda morfometrik tekshiruv o'tkazildi. Buning uchun G.G. Avtandilov tomonidan tavsiya etilgan 4 ta kichik kvadratcha (100 ta nuqtadan iborat) nuqtali to'r ishlatildi. Morfometrik o'lchov mikroskopning ob.20xok.10o'lchamida amalga oshirildi. Bunda mushak va fibroz to'qimaga tushgan nuqtalar, shuningdek qon tomir devori va bo'lig'ining ko'rsatkichlari hisoblandi. Jumladan, kardiomiotsitlarning strukturasi morfometrik jihatlarini o'rganish uchun G.G. Avtandilov tomonidan tavsiya etilgan okulyar mikrometrdan foydalanildi. Morfometrik ko'rsatkichlarining ishonchliligi (t), ko'rsatkichlar minimal xatosi (m) va asoslilik darajasi (p) aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Yurakning surunkali ishemik kasalligida miokard tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlarning yoshga bog'liq jihatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida yurakning turli yoshda surunkali ishemik kasalligi bilan xastalanib vafot etganlar miokard qavati tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlarni yoshga bog'liq jihatlari keltirilgan:

Yoshlarda miokard tuzilmalarining patomorfologik o'zgarishlari

Yurakning surunkali ishemik kasalligi bilan 25-30 yoshgacha xastalanib vafot etganlarning jami 11 nafar bo'lib, shulardan 82 % erkak, 18% i ayollardir.

Marhumlar yuragining o'rtacha og'irligi $343,3 \pm 5,1$, o'lchamlari $10,5 \times 8,7 \times 5,1$ sm, chap qorincha qalinligi $- 1,11 \pm 0,12$, o'ng $- 0,33 \pm 0,02$ sm. Miokard konsistensiyasi elastik. Ushbu yoshdagilar yuragining miokard qavatidan tayyorlangan mikropreparatlarda mushak talalari oraliqlarida perivaskulyar sohalariga oraliq biriktiruvchi to'qimaning o'sganligi aniqlanadi. Mayda intramiokardial arteriya qon tomirlarining devori qalishlashishi hisobiga ularning bo'shliqlari torayishi kuzatiladi. Koronarokardioskleroz o'choqlar atrofida kardiomiotsitlarning gipertrofiyasi kuzatiladi (5-rasm).



Rasm-5. 25-30 yoshli bemorlar intramiokardial qon tomirlaridagi koronarokardioskleroz (1) o'choqlari va qon tomir (2) Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10


Surunkali yurak ishemik kasalligi bilan xastalanib 31-35 yoshida xastalanib vafot etganlar jami 12 nafarni tashkil etib, shulardan 92 % erkaklar, 8,0 % ayollar tashkil etadi.

Marhumlar yuragining o'rtacha og'irligi $343,3 \pm 3,7$, o'lchamlari $11,1 \times 8,6 \times 5,3$ sm, chap qorincha qalinligi $- 1,05 \pm 0,12$, o'ng $- 0,34 \pm 0,01$ sm. Ushbu yoshdagilar yuragining mioakrd qavatidan mushak talalari tolalangan, orliq to'qimasiningning shishinishi, atrofidagi kardiomiotsitlarning gipertrofiyasi qayd etiladi. Ko'ruv maydonida perivaskulyar sohalariga oraliq biriktiruvchi to'qimaning o'sganligi ya'ni konorokardioskleroz o'choqlari aniqlanadi. Mayda intramiokardial arteriya qon tomirlarining devori qalinlashgan, intima qavati aniqlanmaydi va ularning bo'shliqlari 45-50 % dan ko'proq torayishi kuzatiladi.

Mushak tolalari oraliqlarida mayda hajmli to'g'ri yo'nalgan sklerotik jarayonlar va ularga yaqin joylashgan karidiomiostlar gipertrofiyasi ko'zga tashlanadi.

36-40 yoshda yurakning surunkali ishemik kasalligidan vafot etganlar jami 22 nafar bo'lib, shulardan 82 % erkaklar, 18 % ayollar tashkil etadi.

Marhumlar yuragining o'rtacha og'irligi $345,3 \pm 3,8$, o'lchamlari $11,4 \times 8,7 \times 5,4$ sm, chap qorincha qalinligi $- 1,2 \pm 0,11$, o'ng $- 0,35 \pm 0,02$ sm. Ushbu yoshdagilar yuragining mioakrd qavatidan mushak talalari tolalangan, orliq to'qimasiningning shishinishi, atrofidagi kardiomiotsitlarning gipertrofiyasi qayd etiladi. Ko'ruv maydonida perivaskulyar sohalariga oraliq biriktiruvchi to'qimaning o'sganligi ya'ni konorokardioskleroz o'choqlari aniqlanadi. Mayda intramiokardial arteriya qon tomirlarining devori qalinlashgan, intima qavati aniqlanmaydi va ularning bo'shliqlari 65 % dan ko'proq torayishi kuzatiladi (6-rasm).




Rasm-6. 36-40 yoshli bemorlar intramiokardial qon tomirlaridagi sklerotik o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan koronarokardioskleroz (1). Qon tomir (2). Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10

Surunkali yurak ishemik kasalligidan 41-44 yoshda vafot etganlar soni jami 18 nafar bo'lib, shulardan 83 % erkak, 17 % ayollardir.

Vafot etgan shaxslar yuragining o'rtacha og'irligi $346,4 \pm 1,9$, o'lchamlari $11,5 \times 8,9 \times 5,1$ sm, chap qorincha qalinligi $- 1,15 \pm 0,1$, o'ng $- 0,34 \pm 0,03$ sm. Ushbu yoshdagilar yuragining mioakrd qavatidan mushak talalari tolalangan,

miokardiotsitlarning kuchli gipertrofiyasi va oraliq to'qimasining shishinishi kuzatiladi. Perivaskulyar sohalariga oraliq biriktiruvchi to'qimaning o'sganligi kirganligi- koronokardioskleroz o'choqlari qayd etiladi. Mayda intramiokardial arteriya qon tomirlarining devori keskin qalinlashgan va ularning bo'shliqlari 65-70 % dan ko'proq torayishi kuzatiladi (7-rasm).




Rasm-7. 41-44 yoshli bemorlar intramiokardial qon tomirlaridagi torayishi (1) va kardioskleroz o'chog'i (2) Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10

Shunday qilib, surunkali ishemik kasalligiga chalingan yosh bemorlar yuragining miokard qavatidagi morfologik o'zgarishlar asosan koronorokardioskleroz ko'rinishida namoyon bo'ladi. Intrakardial arteriyalar devorining toryishi kuchliroq rivojlanadi. Miokardda morfologik jihatdan ishemik tipdagi o'zgarishlar namoyon bo'lishi, kardiomiotsitlarning gipertrofiyasi va oraliq biriktiruvchi to'qimaning perivaskulyar sohalariga o'sib, o'choqli sklerotik o'zgarishlarning miqdoriy jihatdan kam bo'lishi qayd etiladi.

O'rta yoshlilarda miokard tuzilmalarining patomorfologik o'zgarishlari


Surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etgan o'rta yoshlilar guruhining birinchi kichik guruhlari (45-50 yoshlilar) 23 holatni tashkil etib, shulardan 21 nafari erkaklar (91%) va 2 nafari ayollardir (9%).

